

NUTQIY MAVZU – GRAMMATIK MA'LUMOT – ADABIY O'QISH KONSENTRLARI UZVIYLIGINI TA'MINLASH VOSITASIDA TALABALAR MONOLOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Salisheva Zilola Ismoilovna,

*O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Jiyanova Nazokat Eshquvvatovna,

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Saida Maksumova Sunnatovna,

O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutqiy mavzu, grammatik ma'lumot va adabiy o'qish konsentrlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash orqali talabalar monologik nutqini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida talabaning mustaqil fikrlashi, o'z fikrini izchil va mantiqiy bayon qila olishi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu sababli til ta'limida monologik nutqni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Maqolada nutqiy mavzu, grammatik bilim va adabiy o'qishning integratsiyasi talabalarning og'zaki nutq faoliyatini takomillashtirishdagi o'rni ilmiy–metodik jihatdan asoslanadi. Shuningdek, integrativ yondashuv, interfaol metodlar va amaliy mashqlarning samaradorligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: monologik nutq, nutqiy mavzu, grammatik ma'lumot, adabiy o'qish, integratsiya, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы развития монологической речи студентов посредством обеспечения взаимосвязи между речевой темой, грамматическими сведениями и концентрами литературного чтения. В современной системе образования одним из важных компетенций считается умение студента самостоятельно мыслить, последовательно и логично излагать свои мысли. В связи с этим развитие монологической речи рассматривается как одна из приоритетных задач языкового образования. В статье с научно-методической точки зрения обосновывается роль интеграции речевой темы, грамматических знаний и литературного чтения в совершенствовании устной речевой деятельности студентов. Также освещается эффективность интегративного подхода, интерактивных методов и практических упражнений.

Ключевые слова: монологическая речь, речевая тема, грамматические сведения, литературное чтение, интеграция, коммуникативная компетенция, культура речи, педагогическая технология.

Abstract. This article analyzes the issues of developing students' monologic speech through ensuring the interconnection between speech topics, grammatical knowledge, and literary reading concentrates. In the modern educational system, one of the important competencies is considered to be the student's ability to think independently and express ideas consistently and logically. Therefore, the development of monologic speech is regarded as one of the priority tasks in language education. The article scientifically and methodologically substantiates the role of integrating speech topics, grammatical knowledge, and literary reading in improving students' oral speech activity. In addition, the effectiveness of the integrative approach, interactive methods, and practical exercises is highlighted.

Keywords: monologic speech, speech topic, grammatical knowledge, literary reading, integration, communicative competence, speech culture, pedagogical technology.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida ta'lim tizimi oldiga raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan, o'z fikrini erkin ifoda eta oladigan shaxsni

tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, talabalar nutqini rivojlantirish masalasi til ta'limining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, monologik nutqni shakllantirish va rivojlantirish ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Monologik nutq insonning ma'lum bir mavzu yuzasidan mustaqil, mantiqiy va izchil fikr bayon etishi jarayonidir. Bunday nutq turi keng dunyoqarash, boy lug'at zaxirasi, grammatik bilim va tafakkur mustaqilligini talab qiladi. Talabalarda monologik nutqni shakllantirish uchun esa nutqiy mavzu, grammatik ma'lumot va adabiy o'qish materiallarini bir– biri bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'limda grammatik bilimlarni alohida, adabiy o'qishni esa mustaqil yo'nalishda o'qitish holatlari uchraydi. Natijada talabalar nazariy bilimlarni amaliy nutq faoliyatida qo'llashda qiyinchilikka duch keladilar. Zamonaviy metodika esa til birliklarini real kommunikativ vaziyatda o'rgatishni talab qiladi. Kommunikativ yondashuv tarafdori Jack Richards ta'kidlashicha, tilni o'rganishning asosiy maqsadi grammatik qoidalarni yodlash emas, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olishdir (Jack Richards, 5). Mazkur fikr nutqiy mavzu, grammatik ma'lumot va adabiy o'qish integratsiyasining zarurligini asoslaydi. Nutqiy mavzu talabaning fikrlash faoliyatini faollashtiradi, grammatik ma'lumot esa fikrni to'g'ri ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Adabiy o'qish esa nutq boyligi, estetik tafakkur va ma'naviy dunyoqarashni rivojlantiradi. Shu bois mazkur komponentlarni integratsiyalash asosida tashkil etilgan ta'lim kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi, nutq madaniyatini oshiradi, shuningdek, monologik va dialogik nutqni rivojlantiradi.

Monologik nutq tushunchasi va uning pedagogic ahamiyati. Monologik nutq – bu bir shaxsning ma'lum mavzu asosida mustaqil fikr yuritishi, voqea– hodisalarni tahlil qilishi va o'z munosabatini bayon etishidir. Monologik nutq dialogik nutqdan farqli ravishda chuqur fikrlash, dalillash va umumlashtirishni talab etadi.

Pedagogik jihatdan monologik nutq quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- tafakkur kengaytiradi;
- lug'at boyligini kengaytiradi;
- grammatik savodxonlikni shakllantiradi;
- nutq madaniyatini rivojlantiradi;
- kommunikativ kompetensiyani takomillashtiradi.

Monologik nutqning rivojlanganligi talabaning intellektual salohiyatini ham namoyon etadi. Chunki monologik nutq jarayonida shaxs voqelikni idrok etadi, uni tahlil qiladi va mantiqiy xulosaga keladi. Shu bois zamonaviy ta'limda talabalarni mustaqil fikr bayon etishga o'rgatish alohida e'tibor talab etadi. Monologik nutqni rivojlantirish bosqichma–bosqich amalga oshiriladi. Dastlab talabada mavzu yuzasidan tasavvur hosil qilinadi, keyin

esa grammatik vositalar orqali fikrni to'g'ri ifodalash ko'nikmasi shakllantiriladi. Bunda adabiy matnlar muhim metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqiy mavzuning monologik nutq rivojidadagi o'rni.

Nutqiy mavzu talabalar fikrlash faoliyatining asosiy manbai hisoblanadi. To'g'ri tanlangan mavzu talabalarning nutqiy faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikr bildirishga undaydi. Nutqiy mavzular quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Talabalarning yosh va qiziqishlariga mos bo'lishi;
2. Hayotiy ahamiyat kasb etishi;
3. Mustaqil fikrlashga undashi;
4. Muammoli vaziyatlarni o'z ichiga olishi;
5. Bahs-munozaraga undashi.

Masalan, "Yoshlar va kitobxonlik", "Internetning foyda va zararlari", "Ekologik muammolar", "Milliy qadriyatlar", "Ta'lim va texnologiya" kabi mavzular talabalarni faol fikrlashga chorlaydi.

David Nunan fikriga ko'ra, til o'rganish jarayonida mazmunli kommunikativ vazifalar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi (David Nunan, 4). Nutqiy mavzu ustida ishlash jarayonida talabalar voqea-hodisalarni tahlil qiladi, sabab-natija munosabatlarini aniqlaydi, xulosa chiqaradi, o'z pozitsiyasini himoya qiladi. Bu esa monologik nutqning mantiqiy va izchil shakllanishiga xizmat qiladi. Nutqiy mavzularni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish muhimdir. Jumladan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Debat", "Rolli o'yin", "Taqdimot", "Esse yozish" metodlari talabalarni erkin fikr bildirishga o'rgatadi. Bu esa talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi.

Grammatik ma'lumotlarning monologik nutqni shakllantirishdagi ahamiyati.

Monologik nutqning ravon va mantiqiy bo'lishi grammatik bilimlarga bevosita bog'liq. Grammatik bilim nutqni to'g'ri va mantiqiy tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Ammo grammatik qoidalarni faqat nazariy tarzda o'qitish samarali natija bermaydi. H. Douglas Brownning ta'kidlashicha, grammatika kommunikativ maqsadga xizmat qilgandagina samarali o'zlashtiriladi (H. Douglas Brown, 1). An'anaviy ta'limda grammatik qoidalar ko'pincha nazariy tarzda o'rgatiladi. Natijada talabalar qoidalarni bilsalar ham, ularni nutqda qo'llashda qiynaladilar. Shu sababli grammatik bilimlarni nutqiy faoliyat bilan integratsiyalash zarur. Grammatik bilimlarni monologik nutq bilan bog'lashda gaplarni kengaytirish, matnni qayta hikoya qilish, tayanch so'zlar asosida matn tuzish, grammatik birliklar ishtirokida esse yozish, rasm asosida hikoya tuzish samarali hisoblanadi. Bunday mashqlar grammatik kompetensiya bilan bir qatorda nutqiy malakani ham rivojlantiradi.

Adabiy o'qishning monologik nutq rivojidadagi o'rni. Adabiy o'qish talabaning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyituvchi muhim vositadir. Badiiy asarlar inson ruhiyati, jamiyat va hayot haqida chuqur tasavvur beradi. Shu bilan birga, adabiy matnlar

nutq madaniyati va til boyligining muhim manbai hisoblanadi. Talabalar adabiy asarlarni o'qish orqali yangi so'z va iboralarni o'zlashtiradi, badiiy tasvir vositalarini angelaydi, obrazli fikrlashni o'rganadi, mustaqil munosabat bildirish ko'nikmasini hosil qiladi. Nizomiddin Mahmudov nutq madaniyati haqida shunday yozadi: "Nutq madaniyati til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish mahoratidir" (Nizomiddin Mahmudov, 3). Adabiy matnlar aynan mana shu mahoratni shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi ijodkorlar asarlari talabalarning estetik tafakkurini rivojlantirish bilan birga nutq boyligini ham oshiradi. Adabiy matn asosida:

1. Matnni qayta hikoya qilish;
2. Qahramonlarga tavsif berish;
3. Asar g'oyasini sharhlash;
4. Muallif pozitsiyasini izohlash;
5. Badiiy vositalarni tahlil qilish.

Bu faoliyatlar talabaning izchil fikrlashi va nutq tuzish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, milliy adabiyot namunalariidan foydalanish talabalar ma'naviy tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Nutqiy mavzu, grammatik ma'lumot va adabiy o'qish integratsiyasi. Zamonaviy pedagogikada integrativ yondashuv muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Integratsiya turli bilim yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Nutqiy mavzu, grammatik ma'lumot va adabiy o'qishning uyg'unligi quyidagi natijalarni beradi:

talabada yaxlit nutqiy kompetensiya shakllanadi;
nazariy bilim amaliy faoliyat bilan bog'lanadi;
mustaqil fikrlash rivojlanadi;
nutq madaniyati takomillashadi;
ijodiy faollik ortadi.

Integrativ darslarni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1– bosqich. Motivatsiya. Dars boshida talabalar diqqati mavzuga jalb qilinadi.

Bunda:

- muammoli savollar;
- videoroliklar;
- rasmlar;
- hayotiy vaziyatlardan foydalaniladi.

2– bosqich. Adabiy matn bilan ishlash. Mavzuga oid badiiy matn o'qiladi va tahlil qilinadi. Talabalar yangi so'zlar va badiiy vositalarni o'zlashtiradilar.

3– bosqich. Grammatik materialni o'zlashtirish. Matnda uchraydigan grammatik birliklar asosida qoida tushuntiriladi va amaliy mashqlar bajariladi.

4– bosqich. Nutqiy faoliyat. Talabalar:

- monolog tuzadi;
- esse yozadi;
- taqdimot qiladi;
- mavzu yuzasidan fikr bildiradi.

5– bosqich. Refleksiya. Talabalar o‘z faoliyatini baholaydi va xulosa chiqaradi. Bunday yondashuv talabalarning faol ishtirokini ta‘minlab, monologik nutq rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Interfaol metodlarning ahamiyati. Zamonaviy ta‘lim tizimida interfaol metodlar talabalarni dars jarayonining passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida e‘tirof etiladi. Ayniqsa, nutqiy mavzu, grammatik ma‘lumot va adabiy o‘qish integratsiyasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda interfaol metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta‘minlaydi. Chunki interfaol metodlar talabalarni mustaqil fikrlashga, muloqot qilishga, muammoli vaziyatlarni hal etishga va erkin munosabat bildirishga undaydi. Monologik nutqni rivojlantirishda interfaol metodlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodlar talabalarni faol fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga va erkin fikr bildirishga undaydi. Jeremy Harmerning ta‘kidlashicha: “Interfaol ta‘lim o‘quvchilarni real kommunikativ faoliyatga jalb etish orqali tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi (Jeremy Harmer, 2). Mazkur yondashuv talabalarning kommunikativ kompetensiyasini; tanqidiy fikrlashini; ijodiy yondashuvini; nutqiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Integrativ darslarda interfaol metodlardan foydalanishning asosiy afzalligi shundaki, talaba grammatik qoidani alohida nazariya sifatida emas, balki nutqiy vaziyat ichida qo‘llash orqali o‘zlashtiradi. Masalan, adabiy matn asosida tashkil etilgan munozara davomida talabalar grammatik birliklardan tabiiy ravishda foydalanadilar. Natijada nazariy bilim amaliy nutq faoliyati bilan uyg‘unlashadi. Masalan, “Aqliy hujum”. Bunda talabalar ma‘lum mavzu yuzasidan erkin fikr bildiradilar. Bu usul nutqiy faollikni oshiradi. Masalan, “Kitob mutolaasining ahamiyati” mavzusida talabalar qisqa vaqt ichida o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Bu esa monologik nutq rivojiga xizmat qiladi. “Klaster” metodi mavzuga oid tushunchalarni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Bu metod mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi; asosiy va ikkilamchi fikrlarni ajratishga yordam beradi; nutqni rejalashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada talaba monologik nutqni tartibli va izchil tashkil etishni o‘rganadi. “Debat” metodida talabalar grammatik birliklardan faol foydalanadilar hamda adabiy matndan misollar keltirish orqali nutqini boyitadilar. “Rolli o‘yin” metodi real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Talabalar: qahramon roliga kiradi; nutqiy vaziyatni his qiladi; tabiiy muloqot olib boradi. Masalan, adabiy asar qahramonlari ishtirokidagi sahna ko‘rinishlari talabalar nutqining emotsional va ifodali bo‘lishiga yordam beradi. “Taqdimot” metodi talabaning auditoriya oldida erkin chiqish ko‘nikmasini shakllantiradi. Taqdimot tayyorlash va uni auditoriya oldida namoyish etish talabalarni omma oldida nutq so‘zlashga; fikrni aniq ifodalashga; auditoriya bilan muloqot qilishga o‘rgatadi. Bu metod

ayniqsa monologik nutqni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Interfaol metodlar talabalarda nutqiy qo‘rquvni kamaytirib, erkin muloqot muhitini yaratadi.

Interfaol metodlarning pedagogik samaradorligi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlardan foydalangan guruhlarda talabalar nutqiy faolligi oshdi; grammatik savodxonlik yaxshilandi; mustaqil fikrlash rivojlandi; darsga qiziqish kuchaydi. Shunday qilib, interfaol metodlar integrativ ta‘limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nutqiy mavzu, grammatik ma‘lumot va adabiy o‘qish integratsiyasi zamonaviy til ta‘limining muhim metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur integratsiya ta‘lim jarayonini faqat nazariy bilim berishga emas, balki talabalarni real kommunikativ faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, nutqiy mavzu, grammatik material va adabiy o‘qishning uzviy bog‘liqligi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi; grammatik bilimlarni amaliy qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradi; mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi; monologik va dialogik nutqni takomillashtiradi; nutq madaniyatini oshiradi.

Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish talabalarning darsdagi faolligini oshirdi; kommunikativ muhit yaratdi; erkin fikr bildirish ko‘nikmasini rivojlantirdi; o‘quv motivatsiyasini kuchaytirdi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda talaba grammatik qoidani yodlab qolmaydi; uni real nutqiy vaziyatda qo‘llaydi; adabiy matn orqali estetik tafakkurini rivojlantiradi; kommunikativ faoliyat orqali erkin fikr yuritadi. Bu esa ta‘limning amaliy yo‘naltirilganligini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education, 2018.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. London, 2017.
3. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. Toshkent: Ma‘naviyat, 2019.
4. Nunan D. Language Teaching Methodology. New York, 2016.
5. Richards J. Communicative Language Teaching Today. Cambridge University Press, 2015.